


Maktabda

GEOGRAFIYA



Ilmiy-metodik, ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy jurnal

№ 2(182) 2025-yil



Maktabda

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va
“yashil” iqtisodiyot yili

GEOGRAFIYA



№ 2(182) 2025-yil



MUNDARIJA

Muhit va ekologik omillar haqida nimalarni bilasiz?	2
Geografiya fanida o'yinlardan foydalanish metodikasi	6
Avstraliya materigi nima uchun sayyoramizning noyob qo'riqxonasi hisoblanishini bilasizmi?	10
Farg'ona viloyati suv omborlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	15
Marjon rif orollari qanday hosil bo'ladi?.....	18
Suv resurslari muammosi	21
O'zbekiston Respublikasida yashil energiyani rivojlantirish imkoniyatlari	24
Tinch okeani oqimlari va ularning iqlim o'zgarishiga ta'siri	26
Geografiya darslarida iqlim o'zgarishining sabablarini tahlil qilish, ta'sirini o'rganish texnologiyasi	30

Muassis:

“YANGI NASHRIYOT-
MATBAA” MChJ

Bosh muharrir:

Oybek ABDIMUROTOV

Tahrir hay'ati:

Nodira SULTONOVA
Sherzod IBROIMOV
Muhridin AVEZOV
Mayram HOJIYEVA
Jahongir ISMATOV
Zakir ROZIMOV
Dilfuza QO'ZIYEVA
Madiyar ABDULLAYEV
Orifjon ERGASHEV
Adham NIYAZOV
Saida NIZAMOVA
Nozimjon AZIMOV
Shahnoza YANGIBOYEVA

Jamoatchilik kengashi:

Shavkat SHARIPOV
Nusratulla ALIMKULOV
Furqat RAJABOV
Mirali MIRAKMALOV
Shuxrat QURBONOV
Shakarbek XOLMURODOV
Jurabek NAMOZOV
Elyor SOBIROV
Kamoliddin XAKIMOV
Viktor FEDORKO
Rustam ABDIYEV
Bekzod YUSUPOV
Ruslan KUSHAYEV
Farxod RAXIMOV
Inomjon PRIMOV

Sahifalovchi-dizayner:

Faxriddin RAHIMOV

Jurnalning original matni “YANGI NASHRIYOT-MATBAA”
MChJning matbaa bo'limida tayyorlandi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsi-
yasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligida № 626609-raqam bilan 2025-yil 19-fevralda
ro'yxatga olingan.

Jurnal 2009-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.


Ikki oyda bir marta chop etiladi.

Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Chilonzor tumani
Bunyodkor ko'chasi, 42- uy.

Tel/Telegram: +998 99 838 41 19

Bosishga ruxsat etildi 24.03.2025-yil. Qog'oz
bichimi 60x84 1/8. Ofset bosma usulida bosildi.
4 bosma taboq. Adadi 3000 nusxa.
buyurtma № B-01
“RICH PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Farg'ona shahar Vatan ravnaqi ko'chasi 47-uy.

GEOGRAFIYA FANIDA



O'rta maktablarda o'quvchilarning geografik bilimlarini oshirish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda geografiya fanining ahamiyati katta. Geografiya darslarida o'quvchilarning o'zi yashab turgan hudud va boshqa mamlakatlarning geografik o'rni, iqlimi, tabiiy sharoiti, foydali qazilmalarini bilishi geografiyani o'qitishdagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O'qituvchining vazifasi esa bularni o'quv jarayonida to'g'ri va samarali tarzda o'rgatishdir. O'quvchilarning mustaqil o'rganish jarayonida o'yindan foydalanish metodikasi geografiya fanini o'qitishda katta rol o'ynaydi.

Geografik o'yinlarni tashkil qilish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini

rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. O'yinlar o'quvchilarga bilimlarni amaliy tarzda qo'llash imkonini beradi, bu esa ularning fikrlash faolligini oshiradi.

Aqliy o'yinlar turli muammolarni hal etishda eng samarali vosita hisoblanadi. O'yin jarayonida ishtirokchilar o'zaro hamkorlikda ishlaydi, vaziyatlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'yin maqsadi ishtirokchilarning qiziqishlariga qarab belgilangan bo'lib, ularning harakatlari orqali o'yin maqsadlariga erishiladi.

O'quvchilarning mustaqil o'rganish jarayonida o'yindan foydalanish metodikasi nafaqat geografik

O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

niyatlar va ularning mohiyatini anglashni o'rganadi, o'zaro bahslashadi, xulosa chiqaradi. Bu ko'nikmalarni shakllantirish asosida boshlang'ich sinfdan boshlab, ularni to'g'ri o'ylash va fikrlashga o'rgatish zarur. Buning bir qancha yo'llari mavjud:

1. O'ylashga majbur qiladigan savol va topshiriqlar berish.

2. Aqliy o'yin vaziyatini yaratish.

O'yin davomida o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini to'g'ri yo'naltirishi zarur.

“Kim chaqqon” metodi

(7-sinf, geografiya)

Ushbu o'yinga asoslangan metodni materik va okeanlarga oid mavzular yakunida o'tkazish mumkin. Masalan, Yevrosiyo materigi mavzusida jarayonni quyidagicha tashkil etish mumkin. Bunda har bir guruhga nom beriladi (masalan, Yevropa, Osiyo, Everest va b.). Ular 5 ta shart bo'yicha bellashadi:

- tabiiy geografik obyektlarni aytish;
- mantiqiy savol-javoblar;
- karta bilan ishlash;
- geografik topishmoq;
- krossvord yechish.

O'yin mavzusi va shartlari o'quvchilarga bir hafta oldin e'lon qilinsa, ular mustaqil o'qib o'rganishadi natijada geografik bilim, ko'nikma va malakalari rivojlanib boradi.

Partalar aylana shaklda qo'yiladi. “Tabiiy geografik obyektlarni aytish” shartida o'quvchilar yonidagi o'rtog'iga biror tabiiy geografik obyekt nomini aytadi. O'rtog'i esa ushbu obyekt haqida gapiradi. Keyin bu o'quvchi ham bir tabiiy geografik obyekt nomini aytadi. Navbatdagi o'quvchi shu tabiiy geografik obyektни ta'riflaydi. Shu zaylda davra aylanaveradi. Masalan:

- Mesopatamiya;
- pasttekislik, Ural;
- tog' va daryo, Volga;
- daryo, Qoragiyo;
- botiq, Azov;
- dengiz, ...

Agar birorta o'quvchi javob yoki tabiiy geografik obyekt nomini darhol aytmay qolsa, o'qituvchi o'ngacha sanaydi, shunda ham javob bo'lmasa, o'sha o'quvchi davradan chiqadi. Uning yonidagi javob berishda davom etadi. Davra birin-ketin kamayaveradi. Eng oxirida qolgan o'quvchi g'olib deb topiladi. O'quvchilar bilan bunday o'yinlarni ekskursiyaga chiqqan paytda ham o'tkazishi mumkin.

Mantiqiy savol-javoblar shartida guruhlariga o'qituvchi muammoli savol beradi. O'quvchilar bir daqiqa davomida savolning javobini aytishlari zarur.

bilimlarni oshirish, balki o'quvchilarda fikrlash, mantiqiy xulosa qilish va muammolarni hal etish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi. Ta'kidlash joizki, geografiya darsligida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish maqsadida turli topshiriqlar beriladi, ammo o'quvchilarning bilimi, tafakkurini yanada oshirish maqsadida ko'proq mantiqiy yo'nalishdagi topshiriqlar, savollarni berish zarur. Bunday topshiriqlar “oddiydan murakkabgacha” tomoyili asosida tizimlashtirilishi kerak.

O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bolalarda aqliy faoliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi, shu orqali ular geografik qonu-



G'olib bo'lgan guruhga ball qo'yiladi. O'yin oxirida eng ko'p ball to'plagan guruh o'quvchilari a'lo baho bilan taqdirlanadi. Bu o'yindan maqsad shuki, o'quvchilar topshiriqqa har tomonlama yondashadi, izlanadi va javob topish jarayonida o'ylash, javob variantlari ichidan to'g'ri javobni tanlashga o'rganadi.

“Kim chaqqon?” o'yin-darsidagi mantiqiy savol-javoblar shartida quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

➤ Yevrosiyo materigi qirg'oqlari nima uchun juda notekis, ya'ni ko'p parchalangan?

➤ Yevrosiyo materigida nechta, qanday litosfera plitalari joylashgan?

➤ Nima uchun shimoliy yarimsharning sovuqlik qutibi – Oymyakon arktika iqlim mintaqasida joylashgan bo'lmasa-da, eng sovuq joy hisoblanadi? Sababini izohlang.

➤ Nima sababdan Hindistondagi Cherrapunja shaharchasiga eng ko'p yog'in tushadi?

➤ Nima uchun Arabiston yarim oroli uch tomondan dengiz va qo'ltiqlar bilan o'ralgan bo'lsa-da, Yevrosiyo materigidagi eng qurg'oqchil hudud hisoblanadi?

➤ Bizga ma'lumki, Xuanxe daryosi eng loyqa daryolardan biri hisoblanadi. Bu daryoning loyqa bo'lishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?

➤ Yevrosiyo materigida kelib chiqishiga ko'ra qanday ko'llar eng ko'p tarqalgan? Javobingizni izohlang.


➤ Yevrosiyo materigida tabiat zonalarini qanday qonuniyatlarga asoslangan holda tarkib topgan?

Karta bilan ishlash shartida Yevrosiyo materigidagi eng muhim geografik obyektlarni kartadan ko'rsatish bo'yicha topshiriqlar beriladi, o'quvchilar ularni xaritada ko'rsatib berishlari lozim bo'ladi. Bunda quyidagicha topshiriqlar berish mumkin.

- Yevrosiyaning eng katta tog'ini ko'rsating.
- Yevrosiyaning eng katta cho'lini ko'rsating.
- Yevrosiyaning eng uzun daryosini ko'rsating.
- Yevrosiyaning eng baland nuqtasini ko'rsating.
- Yevrosiyaning eng past nuqtasini ko'rsating.
- Yevrosiyaning eng katta orolini ko'rsating.
- Yevrosiyaning eng katta yarim orolini ko'rsating.
- Yevrosiyaning eng katta ko'lini ko'rsating.
- Yevrosiyaning eng chuqur ko'lini ko'rsating.
- Yevrosiyaning eng qadimgi tog'ini ko'rsating.
- Yevrosiyaning eng katta dengizini ko'rsating.
- Yevrosiyaning eng katta qo'ltig'ini ko'rsating.

Geografik topishmoq shartida guruhlarga geografiyaga oid topishmoqlar o'qib eshittiriladi. Ular ushbu topishmoq javobini topishlari talab etiladi. Geografiya ta'limida topishmoqlardan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi;
- ularni faol ishtirok etishga undaydi;



- ular topishmoqni yechish uchun mantiqiy fikrlash, taxmin, tahlil qilish kabi qobiliyatlarini kuchliroq ishga soladi;
- topishmoqlarda geografik tushunchalar, obyektlar va atamalar esda qoladigan tarzda ifodalanadi, bu esa o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi;
- topishmoqlar ko'pincha obrazli, she'rga o'xshash shaklda bo'ladi, bu esa o'quvchilarning og'zaki nutqi va so'z bo'yligini oshiradi;
- o'yin jarayoniga topishmoqlarni kiritish uni zerkarlikdan xoli qiladi va jonli muhit yaratadi.

Quyida geografik topishmoqlardan misollar keltiramiz:

**Yevropa va Osiyoni,
Teng ikkiga bo'laman.
Materiklar orasida,
Chegara nuqta bo'laman.**
(Ural tog'i)

**Sayohatchi do'stimga,
Kerak bo'laman doim.
Hamroh bo'lsam yonida,
Aniq bo'ladi yo'li.**
(Kompas)

**Yer tinmayin aylanar,
Daqiqalar shaylanar.
Kun, oy, fasl, almashib,
Qanday nomga boylanar?**
(Yil)


**U rasmga qarindosh,
Xaritaga yaqinroq.
Yerning kichik modeli,
Cho'zinchoqmas yumaloq.**
(Globus)

**Oybek, Begzod ismin
Bosh harflarin olib,
Yirik daryo nomin,
Topib olu bo'l g'olib.**
(Ob)

**Xaritaga qarasang,
Osmonday ko'k rangdamiz.
To'rt og'amiz unutma,
Gar kelsang suvim ichma.**
(Okeanlar)

Krossvord yechish shartining maqsadi o'quvchilarning geografik bilimlarini sinovdan o'tkazish, atamalar, joy nomlari, tabiiy obyektlar haqida bilimni mustahkamlash hamda mantiqiy fikrlash va xotirani faollashtirishdan iborat. Har bir guruhga teng murakkablikdagi krossvord shaklidagi topshiriq beriladi. Bu shartda vaqt

chegaralangan bo'ladi. Masalan, 5 daqiqa vaqt beriladi. Belgilangan vaqtda eng ko'p va to'g'ri yechim topgan guruh yuqori ball oladi. Yevrosiyo materigi mavzusida quyidagicha krossvord tuzish mumkin:



1. Yevrosiyaning eng uzun daryosi.
2. Yevrosiyo materigi Shimoliy Amerikadan qaysi bo'g'iz orqali ajralib turadi?
3. Yevrosiyo qadimgi qaysi materikning parchalanishidan hosil bo'lgan?
4. Jomolungma cho'qqisini birinchi bo'lib kim zabt etgan?
5. Yevrosiyaning eng yirik tog' tizmasi.
6. Dunyodagi eng katta ko'l.
7. Beruniy geografiyaga oid qanday asar yozgan?
8. Dunyodagi eng chuqur ko'l.
9. Yer yuzining eng baland nuqtasi nomi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining pedagogik mahorati, bilimi va ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, geografik o'yin o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil o'qib o'rganishga motivatsiya berish, olingan bilimlarni yanada kengaytirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanish – o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, faolligi va fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytiruvchi samarali metod hisoblanadi. Geografiya fanida o'yinlar orqali o'quvchilar nafaqat yangi ma'lumotlarni egallaydi, balki mustaqil izlanish, xarita bilan ishlash, topqirlik kabi ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. O'yin shaklidagi topshiriqlar dars jarayonini jonlantirib, o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, o'yinlar o'quvchilarda jamoada ishlash, fikr bildirish, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Ular orqali o'quvchilar real hayotdagi geografik jarayonlar va obyektlarni yanada chuqurroq tushunishadi. Shu bois, mustaqil o'rganishni rag'batlantiruvchi didaktik o'yinlarni to'g'ri tanlash va metodik asosda qo'llash har bir o'qituvchining muhim vazifasidir.

Oybek ABDIMUROTOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Geografiya” kafedrasi mudiri, p.f.f.d, dotsent